



TIBBIYOTDA HAYOT VA O'LIM

Umarova Farida Sayidikramovna

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

To'ychiyeva Fotima Asqarali qizi

Tibbiy pedagogika, pediatriya, stomatologiya, farmatsiya va pediatriya ishi fakultetining stomatologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tibbiyotdagi hayot va o'lim tushunchalarining falsafasi mohiyati hamda ularning tibbiyotdagi o'rni ularning axloqiy, ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi. Hayotning oliy qadriyat sifatidagi o'rni, shifokor bemorning hayotni saqlashdagi mas'uliyati va qaror qabul qilish jarayonlari yoritiladi. O'limning tabiiy-biologik jarayon sifatida mohiyati, terminal holatdagi bemorlarga yondashuv, bioetik me'yorlar hamda zamonaviy tibbiyotning qarashlari o'rganiladi. Maqolada hayot va o'lim o'rtasidagi falsafiy muvozanat, inson sha'ni va qadr-qimmatini masalalari ilmiy tahlil etilib, tibbiyot amaliyotida ushbu tushunchalarning ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: hayot falsafasi, o'lim falsafasi, tibbiyot etikasi, bioetika, inson qadr-qimmatini, hayotning qiymati, terminal holat, tibbiy qarorlar, falsafiy tahlil.

Аннотация. В данной статье анализируется философская сущность понятий жизни и смерти в медицине, их место в медицине, этические и социальные аспекты. Выделяется место жизни как высшей ценности, ответственность врача-пациента за сохранение жизни и процессы принятия решений. Рассматривается сущность смерти как естественно-биологического процесса, подход к неизлечимо больным пациентам, биоэтические стандарты и взгляды современной медицины. В статье научно анализируется философское равновесие между жизнью и смертью, вопросы человеческой чести и достоинства, и обосновывается важность этих понятий в медицинской практике.

Ключевые слова: философия жизни, философия смерти, медицинская этика, биоэтика, человеческое достоинство, ценность жизни, неизлечимое состояние, медицинские решения, философский анализ.

Annotation. This article analyzes the philosophical essence of the concepts of life and death in medicine, their place in medicine, their ethical and social aspects. The place of life as a supreme value, the responsibility of the doctor-patient in preserving life, and the decision-making processes are highlighted. The essence of death as a natural-biological process, the approach to terminally ill patients, bioethical standards, and the views of modern medicine are studied. The article scientifically analyzes the philosophical balance between life and death, the issues of human honor and dignity, and justifies the importance of these concepts in medical practice.

Key words: philosophy of life, philosophy of death, medical ethics, bioethics, human dignity, the value of life, terminal condition, medical decisions, philosophical analysis.

KIRISH

Inson hayoti va o'limi qadimdan falsafaning eng murakkab, eng chuqur o'rganiladigan mavzularidan biri bo'lib kelgan. Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi



esa bu masalalarni yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda. Tibbiyot faqat kasalliklarni davolash jarayoni emas, balki inson hayotining mazmuni, uning qiymati, yashash huquqi va o‘limning tabiiy jarayoni bilan bog‘liq keng qamrovli falsafiy masalalarni ham o‘z ichiga oladi. Shifokor har kuni hayotni saqlash, o‘limni kechiktirish yoki terminal holatdagi bemorga to‘g‘ri yondashish kabi muhim qarorlarni qabul qiladi. Bu qarorlar nafaqat tibbiy bilim, balki chuqur axloqiy va falsafiy mulohazalarni talab etadi. Shu sababli hayot va o‘limni falsafiy nuqtai nazardan o‘rganish tibbiyotning ma‘naviy, axloqiy va ilmiy asoslarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayot falsafasining ibtidosida A.Shopengauer turadi, asoschisi esa F.Nitsshe hisoblanadi. Oqim vakillari fikricha, hayot — birinchi o‘rindagi voqelik, keyinchalik ma‘naviyat va moddiyatga, ong va borliqqa bo‘linadigan uzviy yaxlitlik. Tabiiy-biologik talqinda hayot biologik ma‘noda tushunilib, biologik xossalar butun voqelikka tatbiq qilinadi. Hayot tabiiylik bilan qiyoslanadi va har qanday sun‘iylikka qarshi qo‘yiladi. Bu yo‘nalish tarafdorlari kuch-qudratni ulug‘laydilar, har qanday g‘oyaning ro‘yobga chiqishini kishilar yoki ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini bilan bog‘laydilar.

K.Bergson fikricha, hayot — fazoviy hayotiy shiddat, u dastlab yagona markazda tug‘ilib, ko‘p jihatlardan bir-biridan farqlanadigan qator portlashlar, sifatli sakrashlar orqali parallel ravishda rivojlanib boradi. Uning mohiyati ichki kechinmalardan kelib chiqadigan, qalbdagi jarayonlar vositasida fahmlab olinadigan ong yoki a‘lo ong. Hayot falsafasida tug‘ilishdan to o‘limgacha bo‘ladigan biologik davriylikka o‘xshash jarayonlarni boshidan kechiradigan noyob va takrorlanmas “madaniy organizmlar” sifatida namoyon bo‘ladi. Hayot falsafasi noratsional intuitivizmga, uning bilish nazariyasiga yaqinlashadi.

Chunonchi hayot dinamikasini, narsa-hodisaning individual tabiatini umumiy tushunchalarda ifodalaydi. Hayot falsafasi inson mavjudligining ma‘nosi, uning qadri, erkinligi va jamiyatdagi o‘rni haqidagi qarashlarni o‘z ichiga oladi. Tibbiyot nuqtai nazaridan hayot — faqat biologik jarayon emas, balki insonning ruhiy, ijtimoiy va axloqiy qadriga ega bo‘lgan eng oliy boylikdir. Har bir shifokor o‘z faoliyatida “hayotning daxlsizligi” tamoyiliga amal qiladi. Bioetika esa bu tamoyilni ilmiy–falsafiy jihatdan asoslaydi. Zamonaviy tibbiyotda “hayot sifati” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunda insonning faqat yashashi emas, balki qanday yashayotgani — ruhiy holati, og‘riq darajasi, ijtimoiy faoliyati va umumiy farovonligi baholanadi. Demak, hayotning qiymati faqat biologik tiriklik bilan emas, balki uning mazmuni va sifatiga qarab belgilanishi falsafiy masaladir.



O'lim — biologik jarayon sifatida triklikning tugashi bo'lsa-da, falsafada u murakkab ontologik (mavjudlikka oid) tushunchadir. Odamning o'limga munosabati, o'limning ma'nosi, uning ruhiy va axloqiy qabul qilinishi qadimdan falsafaning asosiy mavzularidan bo'lgan. Bu holatlar bioetika, tibbiyot falsafasi va axloq falsafasi nuqtai nazaridan baholanadi. O'limni tabiiy jarayon sifatida tushunish, bemorning sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish tibbiy qarorlar uchun falsafiy asos bo'lib xizmat qiladi. Tabiiy o'lim" degan tushuncha "tabiiy o'lim" deb tushunilishi kerak va bu organizmning yoshga qarab yoki tabiiy kasalliklar tufayli, tashqi ta'sirlarsiz hayotini tugatishidir. Bu jarayon, ko'pincha, insonning hayot faoliyati to'xtashi natijasida ro'y beradi, bunda tibbiy yordam yoki sun'iy hayotni saqlash vositalarisiz organizm o'z faoliyatini to'xtatadi.

Tabiiy sabablar: Bu, asosan, insonning qarib qolishi, umrining oxiriga yetishi bilan bog'liq. Qarilik haqidagi ta'limot — gerontologiya organizm qarishini molekulyar darajadan to butun bir organizm darajasigacha ro'y beradigan asosiy qonuniyatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Geriatriya esa qari yoshdagi odamlarda uchraydigan kasalliklar, ularning kelib chiqish sabablari, kechishi, davolash va oldini olish masalalari bilan shug'ullanadi. Geriatriyaning tarkibiga gerontogigiya va gerontapsixologiya kiradi. Gerontologiya vazifalari faqatgina qarish jarayonining asl tub mohiyatini o'rganish, muddatidan oldin qarishning oldini olish va umrni ma'lum darajada uzaytirishgina bo'lib qolmasdan, balki katta yoshdagi odamlarning ijtimoiy va mehnat faoliyatida faol ishtirok etishini ta'minlashdan iborat tibbiy, biologik va ijtimoiy muammolarni hal etishdir.

Tashqi ta'sirlarsiz: Bunda o'limga olib keladigan shiddatli jarohatlar, baxtsiz hodisalar yoki zaharli moddalar ta'siridan o'lim ro'y bermaydi. Tibbiyot bilan bog'liqligi: Tibbiyot (tabobat) inson sog'lig'ini saqlash va umrni uzaytirishga qaratilgan bo'lsa-da, tabiiy o'lim jarayonini to'xtata olmaydi. Tibbiyot kasalliklarni davolash va oldini olishga yordam beradi, lekin umrning tabiiy tugashini to'xtata olmaydi. O'limning tibbiy va falsafiy mohiyati. O'lim — hayotning tabiiy yakuni. Tibbiyot o'limni biologik jarayon deb bilsa, falsafa uni inson mavjudligining muhim bosqichi sifatida ko'radi. Biologik o'lim: Bu organizm faoliyatining to'liq to'xtashi: yurak urishi, nafas olish va miyaning ishlashi tugaydi. Biologik jarayon sifatida o'lim — qaytmas holat. Miya o'lim: Zamonaviy tibbiyotda o'limning asosiy mezon. Miya po'stlog'ining qaytmas nobud bo'lishi — insonning shaxs sifatida mavjud emasligi demakdir. Falsafiy talqin: Ko'plab falsafiy maktablar o'limni insonning ma'naviy kamolotida muhim bosqich sifatida qaraydi. O'lim hayotning ma'nosini anglashga undaydi, hayotning cheklanganligi insonni uni qadriga yetishga majbur qiladi. Tibbiyotda hayot va o'lim bilan bog'liq axloqiy masalalar (bioetika).



XX–XXI asr tibbiyoti insonning hayoti ustida bevosita ta'sir o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ldi. Bu yangi axloqiy masalalarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Evtanaziya (o'limni tezlashtirish): Og'ir, davo qilib bo'lmaydigan kasalliklarda bemorning azoblarini tugatish maqsadida hayotini ixtiyoriy tugatish masalasi ko'plab bahs-munozaralarga sabab bo'ladi.

Reanimatsiya (jonlantirish) va hayotni sun'iy uzaytirish: Savol: Shifokor bemor hayotni saqlashmi yoki azobni kamaytirishni qaysi birini afzal qo'yishi kerak? Ba'zan bemorning biologik funksiyalari sun'iy usullar bilan uzoq muddat davom ettiriladi. Ammo ong faoliyati yo'q bo'lsa, bunday hayotni uzaytirishning ma'nosi bormi? Bu savol shifokor va oila uchun eng og'ir qarorlardan biridir.

Transplantatsiya va donorlik: Organlarni o'lish uchun o'limning aniq mezonlari, bemorning roziligi, donorlik masalalari katta axloqiy mas'uliyat talab qiladi.

Jamiyat, oila va yaqinlar uchun hayot va o'limning ijtimoiy ahamiyati yuqori hisoblanadi. O'lim — nafaqat biologik yakun, balki ijtimoiy va ruhiy jarayon. Yaqinini yo'qotgan insonda stress, tushkunlik, travma kuzatilishi mumkin. Jamiyatning o'limga munosabati: Turli madaniyatlarda o'limga qarash turlicha ya'ni ayrimlarda o'lim qo'rquv, boshqalarida esa tabiiy kechish sifatida qabul qilinadi.

Tibbiy xizmat sifati va hayotning qadri: Jamiyatning sog'liqni saqlash tizimiga bo'lgan ishonchi — hayotning qadri va o'limning oldini olish darajasi bilan bog'liq.

XULOSA

Tibbiyotda hayot va o'lim falsafasi juda keng va murakkab mavzudir. Hayot — biologik jarayon bo'lish bilan birga ma'naviy va ijtimoiy mazmunga ega, o'lim — muqarrar yakun bo'lsa ham inson ongini yetuklikka chaqiruvchi hodisadir. Zamonaviy tibbiyot hayotni uzaytirish, azob-uqubatlarni kamaytirish, bemorning huquqlarini himoya qilish va o'lim jarayonini insonparvarlik bilan boshqarish kabi vazifalarni bajaradi. Shu bilan birga, hayot va o'lim bilan bog'liq axloqiy savollar har doim muhokamaga ochiq bo'lib qoladi. Kurrayi zaminda yoshi ulug' odamlar soni ortib bormoqda. Shu kungacha odamlar o'rtacha yoshining uzayishi asosan yuqumli kasalliklarni keskin kamaytirish va bolalar o'limining oldini olish hisobiga ta'minlanmoqda. Insoniyat turli kasalliklardan holis bo'lganda ham uning umrini juda ham uzaytirib bo'lmas ekan. Masalan, odamlar o'rtasida ko'p tarqalgan kasallik — yurak-qon tomir sistemasining hastaligidan odamlar butunlay forig' bo'lsalar o'rtacha umrga 6–7 yosh, yomon sifatli o'smalar butunlay yo'qotilganda esa o'rtacha yoshga atiga 1,5 yil qo'shilgan bo'lar ekan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadi: qarish va qarilik muammosini chuqur o'rganish va shu asosida



ontogenezning so‘ngi bosqichini mumkin qadar kechroq ketishini ta‘minlash orqali inson umrini sezilarli darajada uzaytirishga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Akhmedov, Sh.M. Tibbiyot etikasi va klinik amaliyot. Toshkent: TDTU nashriyoti, 2018.
2. Mirzayev, O.T. Tibbiyot va hayot falsafasi. Toshkent: Akademnashr, 2020.
3. Islomov, R.A. Kasallik va o‘lim: tibbiy va falsafiy yondashuvlar. Samarqand: Fan nashriyoti, 2017.
4. Karimova, N. Sog‘liqni saqlash va bioetika masalalari. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2019.
5. Toshpulatov, B. Tibbiyotda inson hayoti va o‘limi. Toshkent: Universitet nashriyoti, 2021.
6. Qodirov, S. Tibbiyot falsafasi va insoniy qadriyatlar. Buxoro: Fan va texnologiya nashriyoti, 2016.
7. Rahmonov, M. Hayot, o‘lim va tibbiyot etikasi. Toshkent: TDTU nashriyoti, 2022.
8. Abdullayev, F. Klinik etik va oxirgi davr parvarishi. Samarqand: Universitet nashriyoti, 2018.
9. Yusupova, L. Tibbiyotda qaror qabul qilish va axloq. Toshkent: Akademnashr, 2019.
10. Shodmonov, R. Tibbiyot, hayot va insoniylik. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti, 2020.

